

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

УРГАНЧ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**“ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ
ШАВКАТ МИРЗИЁЕВНИНГ ОЛИЙ МАЖЛИСГА
МУРОЖААТНОМАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИНИ
ЎРГАНИШ ВА УНИ АҲОЛИ ЎРТАСИДА КЕНГ
ТАРҒИБ ҚИЛИШДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ
МУАССАСАЛАРИНИНГ ЎРНИ” МАВЗУСИДАГИ
РЕСПУБЛИКА ИЛМий – АМАЛИЙ СЕМИНАРИ**

МАТЕРИАЛЛАРИ



ТОШКЕНТ-2018

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

УРГАНЧ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**“ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ
ШАВКАТ МИРЗИЁЕВНИНГ ОЛИЙ МАЖЛИСГА
МУРОЖААТНОМАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИНИ
ЎРГАНИШ ВА УНИ АҲОЛИ ЎРТАСИДА КЕНГ
ТАРҒИБ ҚИЛИШДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ
МУАССАСАЛАРИНИНГ ЎРНИ” МАВЗУСИДАГИ
РЕСПУБЛИКА ИЛМий – АМАЛИЙ СЕМИНАРИ**

МАТЕРИАЛЛАРИ

(2018 йил 7 май)

ТОШКЕНТ-2018

туради. Шундай экан, соғлом ва тетик бўлиш учун жисмоний машқларни бажаришни унутмаслигимиз керак.

YOSHLARIMIZNI AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI

D.Sobirov - katta o`qituvchi, (UrDU XTXQTUMOI)

Bugungi kunda axborotga bo`lgan ehtiyoj, ya`ni uni qabul qilish va tarqatish inson hayoti va faoliyatining asosiy qismiga aylandi. Ayniqsa, jahon axborot tizimi-internet bugungi kunda yoshlarimizning dunyo ilm fan yangiliklari bilan tezda va bevosita tanishuvida hamda zamonaviy bilimlarni egallashida muhim o`rin tutmoqda.

Yoshlarimizni axborot madaniyatini shakllantirish bugungi kunning dolzarb muammosi bo`lib qolmoqda. Yurtimizda ijtimoiy, iqtisodiy, ma`naviy, ma`rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarni yurtimizga tashrif buyurayotgan har bir chet elliklar ham e`tirof etmoqdalar. Biroq bugungi kunda, shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlatning o`zi haqida axborotlarni tarqatish ham muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, internet tarmog`i imkoniyatlari kengayib borayotgan hozirgi davrda, ulardan mamlakatimizning jahon hamjamiyatida tutgan o`rnini mustahkamlashda keng foydalanish zarur. Chunki, jahonga tanilish uchun nafaqat real dunyoda, balki axborot dunyosida ham harakatlar olib borish zarur.

Jahon axborot tizimidan foydalanayotganda qanday axborotlarni qabul qilish, qanday axborotlardan foydalanish borasida salohiyatni ham taqazo etmoqda. Chunki, bozorning oddiy haqiqati shundaki, har kim tepganini savdoga chiqaradi. Sifati, mazasi, rangi, ta`mi yoki foydasi jihatdan tanlash haridorning ixtiyorida. Ana shu hayotiy qonuniyat nuqtayi nazaridan qaraganimizda jahon axborot bozorida bizning manfaatlarimizga zid bo`lgan, milliy xususiyatlarimizni, an`analarimizni, turmush tarzimizni mensimaydigan axborotlar ham xuruj qilmoqda. Bu o`z-o`zidan axborot sohasidagi milliy xavfsizlikni ta`minlash muammosini ko`ndalang qilib qo`ymoqda.

Internet orqali tarqalayotgan axborot bugungi kunni global muammolaridan biri hisoblanadi. Globallashuv davrida axborotga bo`lgan talab yuqoriligi bois, inson o`ziga kerakli bo`lgan turli xil ma`lumotlarni oladi. Ayni paytda taraqqiyot jarayonida Internetda tarqatilayotgan axborotning holis yoki haqqoniyligiga ishonish dolzarb masaladir. Internetdagi ayrim xabarlar buzg`unchilik harakatlarini sodir etishga undaydi. Hozirgi vaqtda bunday axborot tarqatish usullaridan turli ekstremistik guruhlar, buzg`unchi tashkilotlar foydalanib kelayotgani butun dunyoni tashvishga solmoqda¹. Taraqqiyot jarayonida telefon orqali kompyuterga ulanib dunyoning xohlagan burchagidagi insonlar bilan muloqotda bo`lish va o`ziga kerakli axborotni olishi mumkin.

Axborot inson hayotiga turli yo`nalishlar orqali ta`sir o`tkazadi. Axborot asrida "mavhumlashuv" yuz bermoqda ya`ni axborot – qudratli vositaga aylanib butun dunyoni tashvishlantiradigan muammolarni kelib chiqishiga turtki bo`lmoqda. O`tgan asrda insoniyat yadroviy xurujlardan "cho`chigan" bo`lsa, axborotlashgan global

¹ Тўйчиева С. Ёшлар маънавияти ва ахборот хуружлар. Т. : TDPU, 2002. -Б 45

tarmoq tizimi inson hayotiga katta imkoniyatlar ham ochib berishdan tashqari jiddiy tashvishlarni ham tug'dirmoqda. Axborot asrida Internetdan axborot tarqatish va qabul qilish oddiy hol bo'lib qoldi. Internetda "kiberterrorizm" vujudga kelgan. Bu esa ayrim shaxslar o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda agressiv maqsadda axborot xurujini uyushtiradi. Internet orqali tarqalayotgan axborot xuruji ajdodlarimizdan meros bo'lgan milliy qadriyatimizga ham ta'sir ko'rsatadi. Milliyligimizni saqlab kelayotganimiz uchun, mustaqil davlat bo'lib dunyoga tanilayotganimiz sababli ayrim davlatlar global tarmoq orqali axborot xurujini uyushtirishga harakat qiladi.

Bugungi kunda Internetda mafkuraviy ta'sir o'tkazish nihoyatda o'tkir qurolga aylanib kelayotgani turli xil siyosiy kuchlar gegemon davlatlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini va global jarayonda Internetning roli katta ekanini yoshlarimizga tushuntirishimiz kerak.

Insoniyat yangi tamaddunga qadam qo'yganini har nafasda his qilmoqdamiz. Bu narsa umumbashariy tamoyillarga urg'u berilgan holatda milliy ma'naviyatning evrilishi, qadriyatlarning o'zgarishi yoki almashishi hodisalari mavjud zamonaviy tafakkur tarzida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Butun dunyoda qadriyatlar almashishi, integratsiyalashuv, globallashuv, agar ta'bir joiz bo'lsa, madaniyatlar aralashuvi, sintezlashuvi jarayoni kechayotgan hozirgi paytda o'zga urf-odatlariga, ma'naviy tamoyillarga moyil bo'lish tabiiy hol. Ko'plab tadqiqotchilar istilohlarida kishilar ongini programmashtirish, axborot ekspansiyasi, madaniy gegemonlik, madaniy imperializm kabi iboralar qo'llanmoqda.

Islom Karimov ta'kidlaganidek, "...ba'zan beozor bo'lib tuyuladigan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi". Bu fikrlar aynan kompyuter, internet va undan foydalanish masalasiga ham tegishli.

Bugun butun dunyoni to'r singari o'rab olgan Internet tizimi orqali istagan kishi har qanday ma'lumotni qabul qilishi yoki uzatishi mumkin bo'lib qoldi. Albatta, zamonaviy axborot texnologiyalarining kishilar dunyoqarashi, bilimi va saviyasining kengayishidagi ahamiyatini inkor etmagan holda, aynan shu tizim orqali oddiy axloqiy me'yorlarga zid saytlar o'rin olgani, ushbu elektron qurilma imkoniyatidan transmilliy jinoyatchi guruhlar, missionerlar, terrorist va aqidaparastlar, millatchi sektalar bimalol foydalanayotgani isbot talab qilmaydigan dalildir. To'g'ri ularga qarshi kurash ketayapti, biroq, mazkur balo ko'lami ham xazilakam emas.

Biz kelajak egalari bo'lmish avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz uchun ularni nafaqat jismoniy sog'lom, balki sharqona xulq-odob va umumbashariy g'oyalar bilan kamol topgan barkamol inson qilib tarbiyalashimiz kerak bo'ladi va bu sohada bir muncha natijalarga erishilmoqda. Bu borada mahalla oqsoqollari va faollari, har narsadan ogoh fuqarolik yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy masalalar bo'yicha maslahatchilarining samarali ishlari ham o'z mevasini bermoqda. Bugungi kunda o'z hayotini ana shunday mas'uliyatli sohaga bag'ishlagan ko'plab iste'dod sohiblari yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, komil insonni tarbiyalash yo'lida munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Н.М.Маткаримова - Никох тўйи маросимларига инновацион ёндошувнинг ўзига хос хусусиятлари.....	112
Д.П.Атаева, С.Хотамов - Замонавий ўзбек жамияти ва миллий маънавиятга «оммавий маданият»нинг таъдиди.	115
Е.Худоynazarov, М.Векchonova - Boshlang'ich sinf matematika darslarida she'riyatdan foydalanamiz.....	117
Р.Ф.Раджабов, Ш.Ш.Маткаримова, Х.Б.Шарипова - Талабаларнинг маънавий дунёкараштини ривожлантириш.....	121
Н.К.Нуруллаева, Ш.Абдушарипов - Вайронкор гоё ва мафкураларнинг жамият тараққиётига салбий таъсири ҳамда уларни бартараф қилиш йўллари.....	125
Б.Х.Сапарбаев - Освещение в книге «фирдавс ул-икбол» Социально-политической ситуации в годы правления Мухаммада Рахимхана I.....	127
М.Р.Жуманийазова - Jismoniy tarbiya va sportni kasbiy tayyorgarlikdagi ahamiyati.....	130
А.Якубов - Жисмоний ҳаракат - соғломлаштирувчи куч.....	133
D.Sobirov - Yoshlarimizni axborot madaniyatini shakllantirish mezonlar.....	135
K.R.Yo'ldashev, Y.X.Babadjanov, D.Q.Marksova - Xorazm viloyati sharoitida o'simlikxo'r baliqlarni ko'paytirishning samarali usullari.....	137
O'.Odamova, Sh.N.Ismoilova - Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o'rni.	139
Н.К.Нуруллаева, А.Садуллаев - Ёш авлодни миллий гоё руҳида тарбиялашда тарихий хотиранинг аҳамияти.....	141
O.Radjapov, X.Aminov, B.Nurullayeva, S.Toxirova - "Ommaviy madaniyat"ning salbiy oqibatlari: globallashuv sharoitida qarshi kurash usullari.....	144
M.J.Quryozova - "Boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish va ularning ahamiyati".....	146
Sh.Sh.Xudayberganov, N.Yaqubova - "Boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish qoidalari va ularning dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyati".....	149
Р.Ф.Раджабов, У.Д.Комилова, М.А.Курбонова - Оммавий маданият ва китобхонлик муаммолари.....	151
Yu.A.Matyakubova, Sh.U.Otaboyeva, Sh.M.Allaberganov - "Ildiz tuzilishi va morfologiyasi" mavzusini o'qitishning nazariy asoslari.....	153
K.Iskandarov, S.Ishchanova - Maktabgacha yoshdagi bolalariga axborot texnologiyasi asosida mashg'ulot o'tishning ba'zi jihatlari.....	156
S.Yu.Babajanova, M.Nasriddinova, S.Madrimova, M.Ollaberganova - Globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviyatini shakllantirish.....	158
S.Ollaberganova, D.Po'latova - Maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy o'yinlar bolalarning amaliy faoliyati sifatida.....	160
D.Egamberganova - Yoshlarda xulq-odob madaniyatini shakllantirish.....	162
I.I.Abdullayev, R.Fayzulleev - Ksilofaglarning morfologik tuzilishidagi muhim belgilari.....	165
Ю.А.Матякубова, Д.К.Каримова, С.А.Нурметов - Ботаника дарсларида	167